

## IS'HOQXON TO'RA IBRAT HAYOTI TARIXIDAN

*Mahmudov Zoirbek Tohirjon o'g'li*  
*Andijon davlat pedagogika instituti*  
*Tarix yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada buyuk jadid bobolarimizdan biri Is'hoqxon to'ra Ibrat hayoti haqida bayon qilingan. Maqola orqali Shoir Ibratning hayot yo'lari, chet el safarlari, tashkil qilgan maktab va kutubxonasi haqida ma'lumotlar berilgan. Ushbu maqolaning maqsadi buyuk jadid bobolarimizning hayoti hamda ijodiy faoliyatini o'rganib hayotimizga tatbiq qilishdir.

**Kalit so'zlar:** Shoirning oilasi, madrasa ta'limi, gazeta va jurnallar, "Kutubxonayi Is'hoqiya", chet el safarlari, shoir vafoti.

*Ibrat domlaning el-yurtimiz taraqqiyoti yo'lidagi fidokorona xizmatlari nafaqat o'z davrida, balki bugungi kunda ham barchamiz uchun haqiqiy ibrat bo'lib kelmoqda.*

*(Shovkat Mirziyoyev)*

Shoir va olim, noshir va pedagog, sayyoh va shariat-din arbobi, milliy uyg'onish davrining mashhur islohotchisi sifatida butun hayotini Vatan va millat manfaatiga, uning istiqboliga bag'ishlagan buyuk jadid bobolarimizdan biri Is'hoqxon to'ra Ibratdir.

Shoirning asli ismi Is'hoqxon bo'lib, "Ibrat" uning adabiy taxallusidir. Is'hoqxonning "Ibrat" taxallusini olishining sababi, u faoliyatining dastlabki yillaridan boshlab, ma'rifatparvar shoir, pedagog, olim sifatida zamondoshlarini, Ayniqsa, yoshlarni zamon ilm-fanidan, ilg'or madaniyatdan, yangicha ta'lim, tarbiya tizimidan ibrat olishga undaydi. Is'hoqxon 1279-hijriy (Is'hoqxon to'ra Ibratning tug'ilgan yili va Xoja Ahmad Yassaviy avlodiga mansubligi uning kenja o'g'li Rotibxon Is'hoqov uyida saqlanuvchi shajarada berilgan), milodiy – 1862- yili Namangan yaqinidagi To'raqo'rg'on qishlog'ida tavallud topgan. Ibratning bobosi Qo'qon xonligida kata e'tiborga loyiq bo'lgan ziyolilar sulolasiga mansub bo'lgan. To'raqo'rg'on uzoq yillar davomida qozilik qilgan va "Afsus" taxallusi bilan she'rlar yozgan. Bobosining ismi To'raxon edi. To'raxon bobo haqida Po'latjon domulla Qayyumiyning "Tazkirayi Qayyumiy" asarida qimmatli ma'lumotlar hamda g'azallaridan namunalar berilgan. Ushbu oila ya'ni is'hoqxon Ibrat oilasi mashhur mutasavvif Ahmad Yassaviy avlodiga mansub bo'lib, XVIII asr oxirlarida To'raqo'rg'on va Mullakuding qishloqlariga hijrat qilgan. Is'hoqxonning otasi Junaydullaxo'ja juda ham bilimli, sohibkor bog'bonlardan edi. Uning tahminan besh

tanobcha yeri bo‘lib, dehqonchilik va bog‘bonchilik bilan oila tebratgan. Shu bilan birga, adabiyotga, ayniqsa, she‘riyatga juda ham qiziqqan, “Xodim” taxallusi bilan she‘rlar mashq qilgan.

Onasi Hurbibi o‘z davrining o‘qimishli, oqila ayollaridan bo‘lgan, u uyida qishloq qizlarini o‘qitardi. Bundan tashqari adabiyot va san‘atga ko‘ngil qo‘ygan, she‘riyat bilan ham shug‘illangan. Ahmad Yassaviy, Lutfiy, Navoiy, Jomiy, Bedil, Mashrab, So‘fi Olloyor kabi buyuk shoirlar asarlarini mutolaa qilish xonadon ahli uchun sevimli mashg‘ulot bo‘lgan. Oiladagi bunday ma‘naviy hayot yosh Is‘hoqxonda adabiyot va san‘atga bo‘lgan muhabbatining ancha erta uyg‘onishi va kurtak yozishida asosiy omil bo‘ladi. Ota-onasisi ham Is‘hoqxonga Qur‘on tilovatini, she‘riyat ohanglarini singdirib bordilar. 1870-yillarning ikkinchi yarmida otasi Junaydullox o‘ja vafot etadi.

Is‘hoqxon dastlab hijo usuliga asoslangan qishloq maktabida o‘qidi, ammo onasining qizlar maktabida o‘qib, savod chiqardi. Hurbibi o‘z maktabida faqat quruq yodlatish bilangina cheklanmay, qizlarga yozishni, husnixatni ham o‘rgatar, mashq qildirar edi. Is‘hoqxon xat-savodi to‘la chiqqach, onasi Hurbibi rahmonligida shoir So‘fi Olloyorning “Sabot ul-ojizin” risolasini to‘liq ko‘chirgani ma‘lum. Mazkur qo‘lyozma hozirda Rotibxon Is‘hoqov xonadonida saqlanadi. Shunig uchun ham Is‘hoqxon o‘zining “Mezon uz-zamon” asarida onasi ustoz sifatida hurmat bilan tilga oladi. Is‘hoqxon bolalik va o‘spirinlik yillarida ayniqsa husnixatga qiziqdi, bo‘sh vaqtini ko‘proq bu san‘at sirlarini o‘rganishga bag‘ishladi.

Adabiyot va san‘atga mehr-muhabbat qo‘ygan Is‘hoqxonni o‘qishni davom ettirish uchun 1878-yilda Qo‘qonga yuboradilar va u Muhammad Siddiq Tunqator madrasasida o‘qishga kiradi. Uning Qo‘qonda tehsil olgan yillari (1878-1885) o‘zbek adabiyotida, madaniy hayotida, ayniqsa, maorifda tub sifat o‘zgarishlari sodir bo‘la boshlagan davrga to‘g‘ri keldi. Uning bu adabiy, madaniy-ma‘rifiy hayotdan bahramand bo‘lganligi, shubhasiz...

Is‘hoqxon Ibrat madrasa ilmlari bilan cheklanib qolmay, o‘qish davomida buyuk Sharq mutafakkirlari asarlarini mustaqil tarzda qunt bilan mutolaa qildi, arab, fors va rus tillarini chuqur o‘rgandi, uning ayniqsa til o‘rganishga fitriy qobiliyati kuchli bo‘lgan. U o‘zbek va rus tillarida nashr etila boshlagan Turkistonning dastlabki gazetalarini “Turkestanskiye vedomosti”, “Turkiston viloyatining gazetasi” bilab, Turkiston ziyolilari o‘rtasida yangi tarqala boshlagan Ismoilbek Gasprinskiyning “Tarjumon” gazetasi bilan birinchi bor Qo‘qon madrasasida o‘qib yurgan kezlari tanishdi, muntazam kuzatib bordi. Is‘hoqxon tomonidan keyinchalik 1910-yilda tashkil qilingan “Kutubxonayi Is‘hoqiya” nomidagi ancha boy kutubxonasida “Turkiston viloyatining gazetasi”, “Turkestanskiye vedomosti” gazetalarining ba‘zi yil boylamlari, “Tarjumon” gazetasining, hatto, 1885-1886-yilgi boylamlari (to‘liq bo‘lmasada) ham bo‘lgan. U Qo‘qon madrasasida o‘qib yurgan paytlaridan boshlab “Ibrat” taxallusida she‘rlar mashq qila boshlaydi.

Is'hoqxon Ibrat 1885-yilda Qo'qon madrasasini xatmi kutib qilib, o'z qishlog'I To'raqo'rg'onga qaytadi va faoliyatini maorifchi-pedagog sifatida qishloqda ilm-ma'rifat tarqatish bilan boshlaydi. O'sha yili maktab ochadi. Uning maktabi hijo metodiga asoslangan "usuli qadim" maktablaridan tubdan farq qilar edi. Is'hoqxon o'z maktabiga nisbatan ilg'or bo'lgan, savodga o'rgatishda ancha yengillik vujudga keltiruvchi usuli savtiyani-hozirgi atama bilan aytganda, "analitik tovush metodi" ni tatbiq qiladi va uni "usuli qadim" tarafdorlaridan, mutassib din peshvolaridan himoya qiladi. "Usuli savtiya" metodi "usuli hijoiya" metodidan tubdan farq qilar edi. Eski maktablarda savod o'rgatish usuli harflarning qanday tovushlar ifodalashini o'rgatishga emas, balki harflarning faqat nomlarini "alif, be, te, se, jim, he..." tarzida quruq yodlashga asoslangan edi.

Is'hoqxon Ibrat o'zining "Lug'ati sitta al-sina" va "Tarixi Farg'ona" asarlarida yozishicha, 1887-yili, ya'ni 25 yoshida onasini haj safariga olib boradi. Boiroq onasiga o'z vataniga qaytib kelish nasib etmadi, Huribibi haj amallarini bajarib, Jidda shahrida o'pka shamollashi kasalidan vafot etadi. Shoir Ibrat onasining o'limi munosabati bilan butun dard-alamlarini ifodalovchi ta'rix-marsiya bitdi. Is'hoqxon to'raning Sharq mamlakatlariga safarga chiqishidan asosiy maqsadi, avvalambor, onnasining hajga olib boorish haqidagi iltimosini qondirish bo'lsa, ikkinchidan, chet el xalqlari hayoti, madaniyati va ma'naviyati bilan yaqindan tanishish, xorijiy tillarni o'rganish, bu mamlakatlarni o'z ko'zi bilan ko'rish ishtiyoqi edi. Is'hoqxon Ibrat onasini Jidda shahrida dafn etib, Sharq mamlakatlari bo'ylab sayohatini davom ettiradi, shu bilan birga, u Istanbul, Sofiya, Afina, Rim, Parij kabi Yevropaning markaziy shaharlarida bo'ldi, ancha vaqt Arabistonning Jidda shahrida istiqomat qildi. Makkayi mukarrama shahridan Qizil va Arabiston dengizlari orqali Hindistonga keldi. 1892-1896-yillarda Hindistonning eng kata port shaharlari Bompey va keyinroq Kalkuttada yashadi. Bu yerda u xalqlar o'rtasida ko'p ishlatiladigan arba'I lisonni, ya'ni to'rt tilni: arab, fors, hin-urdu va ingliz tillarini mukammal o'rgandi. Chet ellarda xalq hayoti, ularning maorif va madaniyati, Sharq mamlakatlaridagi yevropaliklar orqali kirib kelgan Yevropa madaniyati, tili va san'ati bilan yaqindan tanishdi, o'rgandi, ilmiy asarlari uchun qimmatli ma'lumotlar to'pladi. U Sharq tillari bilan bir qatorda, G'arb tillarini ham bilish zarur deb hisobladi va Arabistonda fransuz tilini, Hindistonda ingliz tilini, shu bilan birga, eng qadimiy finikiy, yahudiy, suryoniy, yunon yozuvlarini o'rgandi. Ibratning Sharq va G'arb xalqlari tillarini ancha mukammal bilganini e'tirof etib, Ibrohim Davron shunday yozadi: "...Fozili insoniydin moado qozi to'ra (Is'hoqxon Ibrat.-U.D) janoblari turkcha, forsha, hindcha, ruscha lison bilib, yana ruscha, fransuzcha, armanicha va boshqa xatlar yozmoqqa, mohirdurlar<sup>1</sup>".

<sup>1</sup> Haq so'z // Turkiston viloyatining gazetisi.1908,56-son.



Is'hoqxon to'ra Ibrat 1896-yilda Hindistondan Birma orqali Xitoyga. so'ngra Qahqarga o'tdi va undan o'z vataniga juda kata taasurotlar bilan qaytib keldi.

U chet ellardan bir qancha madaniyat ashyolari: turli mavzularda va tillarda bitilgan qo'lyozmalar va kitoblar, turli xil musiqiy plastinkalar bilan birga grammofon olib keldi, hamqishloqlariga namoyish etdi. Shoir Ibrat musiqa san'atidan ancha xabardor edi, tanburni juda yaxshoi chalar edi. U keyinroq mashhur hofiz Mulla To'ychi Toshmuhamedov bilan g'oyat yaqin do'st bo'lgan, ular orasida bordi-keldi bo'lib turgan, bu ikki san'atkor Toshkent va Namanganda uyushtirilgan adabiy yig'inlarda qatnashib turganlar.

Ibrat „Turkiston viloyati gazetasi“, „Sadoi Turkiston“, „Sadoi Farg'ona“ gazetalariga yozgan maqolalarida fan, ma'rifat va madaniyatni targ'ib etgan. Ibratning so'nggi yillardagi hayoti ancha tahlikali o'tdi. 1935 yildan u hamma lavozimlardan olib tashlandi. 1937 yilning aprel oyida 75 yoshli keksa shoir va ma'rifatparvarni hibsga oladilar. Ibrat Andijon turmasida vafot etadi. Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumanidagi 14-o'rta maktab va Toshkentdagi bir ko'chaga Ibrat nomi berilgan.

Xulosa qilib aytganda, Is'hoqxon To'ra Ibrat ham boshqa jadid bobolarimiz kabi, butun hayotini xalqimizning ozodligi, ma'rifati uchun baxshida qildi. Hayoti xavf ostida qolishini bilib turib ham maktablar vakutubxonalar tashkil etdi. Ko'plab bolalarga dars berdi. Ma'rifatga ergashtiruvchi ko'plab maqolalar yozdi. Albatta biz mana shunday fidokorona jadid bobolarimizni hayoti va ijodini o'rganishimiz, ulardan o'rnak olishimiz, tinchlikni qadriga yetishimiz va hayotimizga tabiiq etishimiz darkordir.

#### Foydalangan adabiyotlar:

1. Jadidlar. Is'hoqxon To'ra Ibrat. Yoshlar Nashriyoti Uyi. T-2022y.
2. Jadidlar. Is'hoqxon To'ra Ibrat. "Zabarjad Media". T-2022y.
3. Haq so'z // Turkiston viloyatining gazetasi.1908,56-son.
4. Ziyouz.uz